



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING MEDIA SAVODXONLIGINI OSHIRISH – IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA.

Abdurahmonova Zebiniso Kamoliddin qizi

FarDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

zebinisoabdurahmonova06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14444956>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-Dekabr 2024 yil

Ma'qullandi: 08- Dekabr 2024 yil

Nashr qilindi: 13- Dekabr 2024 yil

KEY WORDS

Bolarning media savodxonligini shakllantirish, avvalo, u ta'lim-tarbiya olayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitiga va tarbiyachi-pedagoglarning media ta'lim bilimlarini egallaganlik darajalariga bog'liq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarning media savodxonligini oshirish-ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida qaralishi haqida so'z boradi.

Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'zining yuqori o'rniga ega bo'lishi, bugungi kun yoshlari, xususan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida zamon talab etayotgan – media savodxonlikni rivojlantirish, ularning zamon talablari darajasida bilim va malakalarni egallashlari, ta'lim-tarbiya tizimining kelajakdagi strategik maqsadlarga asosan tashkil etilishiga bevosita bog'liq jarayondir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas bo'g'ini bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg'or axborot texnologiyalarini tatbiq etish hamda ta'lim berish jarayonini sifat va samardorligini oshirish davlat siyosati darajasiga qo'tarilishi bejizga emas. Xususan, bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning: "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hach qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar qilamiz", – deb ta'kidlagan edi.

Bolarning media savodxonligini shakllantirish, avvalo, u ta'lim-tarbiya olayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitiga va tarbiyachi-pedagoglarning media ta'lim bilimlarini egallaganlik darajalariga bog'liq. Zamonaviy kommunikatsion media-tarmoqlar o'rtasida faqat eng oddiy funksional savodxonlikka ega bo'lishning o'zi yetarli emas, balki global interaktivlikning mohiyati va kuchini chuqurroq tushunishni rivojlantirish zarur. Media-pedagoglar bolalarni fikrlashga o'rgatadi, ularda chinakam demokratik jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdiradi.

Media ta'lim jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash jarayoni rivojlanadi. Bolalarni

mustaqil fikrlashga undaydigan media pedagogika yordamida strategiya va texnologiyalarni joriy etish ularning shaxsiy fazilatlarini, jumladan, bilim, ko'nikma, intellektual taraqqiyot, hissiy, axloqiy va amaliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham yosh avlodni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish, jumladan, media ta'lim jarayonida ham juda muhim sanaladi.

Dunyoda inson ongi va qalbi uchun kurash kun sayin shiddatli tus olib, mamlakatlar mafkuraviy manzarasi o'zgarib bormoqda. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning qo'shilib borayotgani, mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlarda mafkuraviy tamoyillar ahamiyatining oshib borayotgani, mafkuraviy jarayonlarning globallashtayotgani, pedagogika nazariyasi va amaliyoti oldida ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash dolzarb vazifaga aylandi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharafli vazifadir", - deya ta'kidlagani bejiz emas.

Ta'lim tizimining sifat darajasini oshirish ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarish tizimini ham takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, hozirgi kunda ta'lim muassasalarida yaratilayotgan zamonaviy sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, o'z ishiga nisbatan talabchan, axborot kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim va saviyaga ega bo'lgan ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya oladigan hamda o'zini-o'zi rivojlantiruvchi rahbar va pedagog kadrlarning faoliyat ko'rsatishini talab qilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi."

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" deya bildirgan purhikmat so'zlari yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, farzandlarimizning barkamol, yuksak tafakkur va bilimga ega bo'lishida ota-onalar bilan bir qatorda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish borasida katta e'tibor qaratilgan.

Bu borada ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi pedagoglarning bilim saviyasini tahlil qilish, o'rganish, kompetensiyaviy diagnostika, ya'ni ta'lim sifatini baholashda zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (tarbiyachi-pedagog va mutaxassis) xodimlarida malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish, tahlil qilish, obyektiv baholash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ularning media va axborot savodxonligi bo'yicha bilim saviyasini yangi metodlar asosida shakllantirish hamda muntazam takomillashtirib borish masalalarini keltirish mumkin.

So'nggi yillar davomidagi texnika va texnologiyalar taraqqiyoti, OAV, axborot manbalari va axborot etkazib beruvchilari (kutubxonalar, arxivlar, internet va boshqalar) faoliyatining beqiyos kengayishiga olib kelib, fuqarolarga uning ulkan hajmidan foydalanish va almashinish imkonini yaratdi. Pirovard natijada, fuqarolar ushbu axborotning ishonchli ekanligini baholash, o'z fikrini erkin bayon etish borasidagi huquqlarini to'laqonli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuning uchun ham kun tartibiga fuqarolarning media va axborot savodxonligini ta'minlashdek dolzarb masala ko'ndalang qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo'lib bormoqda. Axborotning bunday aralash-quralashligi ta'sirida o'quvchining mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadriyatlarini va ideallarini shakllanishi masalalari o'quvchi ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalar tizimini ishlab chiqish hamda shakllantirishni taqozo etmoqda.

Boz ustiga jahondagi ta'lim amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o'tgan asrning 70-yillaridayoq boshlangan bo'lib bu esa pedagogika fani oldiga o'ziga xos yo'nalish – media ta'lim tizimi paydo qildi.

Media ta'lim, inson hayotida faol davom etadigan jarayon bo'lib bu bolalarga berilayotgan bilim, ma'lumotlarning tez, tushunarli va esda qolarli bo'lishini ta'minlovchi ta'lim usulidir. Pedagogning mediakompetentligi mediata'limning natijasi bo'lib bu esa mediata'lim jaryoniga hissa qo'shadigan pedagogning media axborot savodxonligi hisoblanadi.

Media axborot savodxonligi tarkibini quyidagi asosiy tushunchalar tashkil etadi:

- media savodxonlik;
- axborot savodxonligi;
- o'z fikrini erkin bayon etish savodxonligi;
- kutubxona savodxonligi;
- yangiliklar savodxonligi;
- kompyuter savodxonligi;
- internet-savodxonligi;
- raqamli texnologiyalar sohasidagi savodxonlik;
- kinosavodxonlik;
- elektron o'yinlardan foydalanish savodxonligi;
- televizion savodxonlik, reklama sohasidagi savodxonlik.

Shuningdek, media va axborot borasida etarli bilim saviyaga ega bo'lgan tajribali

tarbiyachi-pedagog quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- medianing va ular orqali taqdim etilayotgan axborot shakllarining ta'sirini yaxshi tushunish;
- o'ylangan va mutaqil qarorlar qabul qilish;
- atrof-muxit haqida yangi ma'lumot olish;
- umumiylik hissining shakllanishiga ko'maklashish;
- jamoaviy diskursni qo'llab quvvatlash;
- hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish;
- axborotni yaratish;
- tanqidiy fikrlash;
- mediadan o'zini namoyon qilish va ijodiy maqsadlarda foydalanish;
- mediadan o'z xavfsizligini ta'minlagan va ijtimoiy ma'suliyatni his qilgan holda foydalanish;

demokratik jamiyat xayotida va global axborot tarmog'ida faol ishtirok etish.

Yuqoridagi ko'nikmalarga ega bo'lgan xar qanday pedagog xodimda media savodxonlik shakllangan bo'ladi. Ammo bugungi kunda media vositalar o'zgarib borayotganligi sababli, xar bir pedagog xodim o'zining bilim va ko'nikmalarini uzluksiz shakllantirib, yangilab borishi uchun ma'suldir. Media savodxonligiga oid bilim va ko'nikmalarimizni faol namoyon qilib borganimiz sayin ularning mohiyatini yanada chuqurroq anglab boraveramiz.

Peres Tornero va Varis "Media savodxonligi va yangi gumanizm" kitobida qayd etganlaridek, ta'lim-tarbiya sohasida o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish uchun tarbiyachi-pedagoglarga AKT sohasida bilim va faol kompetensiyalar kerak. Zamonaviy ta'lim-tarbiya turli uskunalar bilan ishlashi uchun kerakli darajada jihozlangan bo'lishi va bu uskunalar nafakat bilim berish va olish uchun, balki kooperativ kognitiv tarmok sifatida ham foydali bo'lishi lozim.

Kuzatish, tadqiq qilish, tahlil qilish, hujjatlashtirish va almashish – faoliyatning ushbu turlarini ta'minlash uchun allaqachon AKTdan foydalanilmokda va yana uzok foydalaniladi. Ulardan foydalanish uchun ta'lim hamjamiyatiga ta'lim kommunikatsiyalari bo'yicha keng ko'lamli chuqur ko'nikmalar va uzluksiz ta'lim o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi pedagoglar manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining bilim va malakalarini rivojlantirishi uchun kerakli bo'lgan media resurslardan oqilona foydalana olishi ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga ijobiy natija beradi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari mediakompetentligini shakllantirish orqali maktabgacha yoshdagi bola qobiliyatini mediasavodxonlik asosida takomillashtirish, ijodkorligini rivojlantirish va ular qiziqishlarini faollashtirish xozirgi zamonning muhim vazifalaridan biridir.

Ushbu yo'nalish bo'yicha biz ishni, avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faliyat yuritib, yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan tarbiyachilarga malaka oshirish institutlarida informatika va axborot texnologiyalari fani mazmuniga media kompetentlik tushunchasini chuqur singdirish masalasini birlamchi vazifa sifatida ko'rishdan boshlashimiz darkor.

XULOSA: Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'zining yuqori o'rniga ega bo'lishi, bugungi kun yoshlari, xususan

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida zamon talab etayotgan - media savodxonlikni rivojlantirish, ularning zamon talablari darajasida bilim va malakalarni egallashlari, ta'lim-tarbiya tizimining kelajakdagi strategik maqsadlarga asosan tashkil etilishiga bevosita bog'liq jarayondir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas bo'g'ini bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Bu borada ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi pedagoglarning bilim saviyasini tahlil qilish, o'rganish, kompetensiyaviy diagnostika, ya'ni ta'lim sifatini baholashda zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (tarbiyachi-pedagog va mutaxassis) xodimlarida malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish, tahlil qilish, obyektiv baholash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ularning media va axborot savodxonligi bo'yicha bilim saviyasini yangi metodlar asosida shakllantirish hamda muntazam takomillashtirib borish masalalarini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Allambergenov A.J. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kasbiy-texnologik kompetentlikni rivojlantirish: p.f.b.f.d... (PhD) dissertatsiya. Nukus - 2020. - B. 85.
2. Астахова Е.В. Информационно-коммуникационные технологии: учебное пособие / Е.В.Астахова. - Барнаул: Изд-во Алт. гос. техн. ун-та им. И. И. Ползунова, 2010. - 82 с
3. Bazalgette C. Primary Media Education: A Curriculum. Statement London: BFI, 1989, 125 p.
4. Boqiyev R.R., Mamajonova M.E. Pedagogik dasturiy vositalar va matematik modellashtirish // Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2003. - №2, - B. 73-77.
5. Долинер Л.И. Информационные и телекоммуникационные технологии в обучении: психолого-педагогические и методические аспекты: монография / Л.И.Долинер. - Екатеринбург: Рос. гос. проф.-пед. ун-т., 2003. - 344 с.